

TURKIY TILLARDA KELISHIK KATEGORIYASI*Abduraimova Dilchehra**Jo'rayeva Marjona**Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti**4-bosqich talabasi**Ilmiy rahbar: Shamsuddinova Iqbol*

Annotatsiya: Bu maqolada hozirgi turkiy tillarda va qadimgi turkiy tillarda kelishik kategoriyalari va kelishiklarning ishlatalishi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Qadimgi turkiy til, kelishiklar, yoqut tili, chuvash tili, tuva, gagauy tili, qurol kelishigi, vosita kelishigi.

Qadimgi turkiy tillar — turli turkiy xalqlar yozma yodgorliklarida saqlangan, lekin hozirgi kunda aloqa aralashuv vazifasini yo'qotgan tillarni bildiruvchi shartli atama. Bu tillar amal qilgan vaqt chegarasi ancha katta davrni qamrab oladi. Qadimgi turkiy tillarning eng qadimiysi o'rxun-enisey yodgorliklari tili bo'lib, uning adabiy variyanti VIII-IX asrlarga to'g'ri keladi

Qadimgi turkiy tillarda kelishiklar soni turlicha bo'lган. Qadimgi turkiy tillar kelishiklar tizimi hozirgi turkiy tillar kelishiklar tizimiga nisbatan ham sifat, ham miqdor jihatdan farqlangan. Turkiy tillar qiyosiy grammatikalarida hozirgi turkiy tillarda 6-8 kelishik mavjudligi haqida gap borsada, ayrim til va lahjalarda qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rın-payt kelishiklarining bir shaklda qo'llanishi yoqut tili kabi ayrim tillarda qaratqich kelishigining mavjud emasligini ko'zda tutib, hozirgi turkiy tillarni 5-7 kelishik tizimiga ega deyish mumkin. Hozirgi turkiy tillarda kelishiklar miqdor jiqatidan unchalik farq qilmaydi. Tatar, gagauz, ozarbayjon, turkman, o'zbek, qoraqalpoq tillarida 6 ta, qozoq tilida 7ta, xakas va chuvash tilida 8ta, yoqut, turk, boshqird tillarida 9 ta kelishik mavjud.

Turkiy tillar kelishiklar tizimi haqida gap borganda, avvalo, turkiy tillarning eng qadimgi bobo til davridagi kelishiklar tizimi ko'zda tutilsa, ikkinchidan, turkiy tillarning mustaqil tillar va lahjalarga ajralish va undan keyingi taraqqiyoti davridagi kelishiklar tizimining holati ko`zda tutiladi.

Kelishiklar nomi	Qo'shimchalar
1. Bosh kelishik	_____
2. Tushum kelishigi	- 1, -i, -uy; - ni / - nu; -in-// in, -u, -ıg
3. Qaratqich kelishigi	-ıŋ, - iŋ,-nuŋ/ -nүŋ; -uŋ/-üŋ; - ŋu
4. O'rın-payt kelishigi	- ta//- tə // -to, -da, -də, // -la// -lo// -

	za//zo//sa//so//na//no
5.Jo`nalish kelishigi	- qa, -gə,-a, -ə, γa/ -qa, -ja, - a, - kā(<-kāru,-garu, -garu)
6.Chiqish kelishigi	- tan, -tən, -dan,- dən, - da: -dan: - daŋ: -dyn
7. Vosita kelishigi	-ын//in

Bosh kelishik - qadimgi turkiy tillarda ham hozirgi turkiy tilda ham maxsus grammatik korsatkichiga ega bolmagan, nol korsatkichli kelishikdir. Bu kelishik boshlangich forma sifatida boshqa kelishiklarga zid qoyiladi.

Qaratqich kelishigi - qadimgi turkiy tillarda mavjud bolmagan. Qadimgi turkiy tillarda qaratguvchi va qaralmish bosh kelishikdagi ikki otning sintaktik aloqasi orqali shakllangan. Yoqt tilida qaratqich kelishigi mavjud emas. Buni bazi turkshunos olimlar qaratqich kelishigi turkiy tillarning ajralishi, tarqalishi davridan keyin paydo bolgan, bu davrda yoqt tili boshqa turkiy tillar bilan aloqada bolmaganligi, hududiy va iqtisodiy turmush sharoiti jihatidan ham turkiy xalqlardan uzoq bolganligi sababli yoqt tili qadimgi 5 kelishik shaklini saqlab qolgan deb taxmin qilishadi.

Tushum kelishigi - hamma turkiy tillarda mano jihatdan bir xil bolib, fe'ldan anglashilgan harakatni qabul qiladigan obekt, harakatning bajarilishidagi vosita, quroq ma'nosini anglatadi. Bu kelishik qo'shimchasi qadimgi turkiy tilda -ы//i, -ыг'//ig' shaklida bo'lib, hozirgi tillarda -ыг'//ig' shakli deyarlik saqlanmagan, -ы//i shakli ham kishilik va ko'rsatish olmoshlari so'nggi tovushining assimilyatsiyasi va morfologik qayta bo'linishi natijasida hozirgi turkiy tillarda -ы//ni va uning turli assimilyativ variantlari kelib chiqqan.

Jo`nalish kelishigi-hozirgi turkiy tillardagi jonalish kelishigi formasi deb sanaladigan barcha qoshimchalarining tarkibida a unlisi uchraydi: -ga, -ka, -qa, -ga, -cha kabi. Shunga kora, qadimgit turkiy tillarda jonalish kelishigi formasi asosan -a bolib g,k,q,g,ch kabi elementlar manoni konkretlashtiruvchi vositalar sifatida kelishik qoshimchalari tarkibida keyin hosil bolgan deb taxmin qilinadi. Har qanday qadimgi turkiy tillarda jonalish kelishigi formasi -a//ə keng tarqalgan forma bo'lgan, shuning uchun bu forma hozirgi turkiy tillarda ham saqlanib qolgan: turk tas+a (kosaga), turkman ova+a (ovulga), ozarbayjon ox+a (o'qqa), chuvosh jal+a (qishloqqa), tatar atым+a, qirg'iz yenem+ye; qozoq qoram+a kabi.Qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillar uchun arxaik hisoblangan -gari//kari, -gari//qari formasi ham bolgan. Hozirgi ozbek tilidagi ilgari, ichkari, tashqari kabi sozlar tarkibida uchraydigan -gari//kari, -gari//qari affikslari malum davrlarda hozirgi manosi singari jonalish manosini anglatgan va shu kelishik affiksi bolgan, lekin kelishik ozi qoshilib kelgan negiz bilan birga ajralmas butunlikka aylanib orin va payt ravishlariga aylanib qolgan.

O‘rin-payt kelishigi – harakat sodir bo‘lgan o‘rin, payt, yoki harakatning bajarilishiga vosita bo‘lgan predmet ma’nosini anglatadi.

O‘rin-payt kelishigining qo‘srimchasi qadim turkiy tilda -da// -də, -ta// -tə bo‘lib, hozirgi turkiy tillarda -da// -do// -ta// -to// -la// -lo// -za// -zo// -sa// -so// -na// -no shakllari mavjud. Turkshunoslik adabiyotlarida -ын// -ин qoshimchalari orqali hosil boladigan arxaik qurol kelishigi deb nomlanadigan kelishik shakli va manosi ham aslida orin-payt kelishigi manosini beradi.

Chiqish kelishigi qoshimchasi xamma turkiy tillarda asosan -dan bolib, uning turli turkiy tillarda yigirmadan ortiq variantlari bor. Ularni quyidagicha guruholashtirish mumkin:

Vosita kelishigi - (Qurol kelishigi) ning “bilan” ko‘makchisidan kelib chiqqan -la// -lo, -lan// -nan, -bən// -man// -bila// -pila kabi variantlari ham asosan o‘rin-payt, ba’zan birgalik ma’nolarini beradi: oltoy maltava, atla, qo‘yla; gagauz. aoshamnan (oqshomdan): qozoq taspen (tosh bilan), qazben (g‘oz bilan);

Turkiy tillarda kelishik shakllari qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha bo‘lgan.

1. Ayrim so‘z tarkibidagi kelishik shakllari yaxlitlanib qolgan. Qadimgi kelishik shakllari ba’zi so‘zlar tarkibida qotib qolgan holda hozir ham uchraydi: : ičrä, üzrä, ičkäri, taşqarı.

2. Bir o‘zakka ikki xil kelishik shakli qo‘shilgan: meniçä, ilgärükabi.

3. Ayrim turkiy tillarda kishilik olmoshlari kelishik qo‘srimchasi sifatida saqlangan. Masalan, qozoq, qoraqalpoq, xakas, qirg‘iz tillarida mağa, sağan, oğanjkishilik olmoshlarijo‘nalish kelishigi -gä o‘rnida ishlatiladi.

4. So‘z o‘zagining qattiq-yumshoqligiga qarab kelishiklar har xil fonetik variantlarda qo‘shilgan. Kelishik qo‘srimchasini olgan so‘z ba’zan fonetik o‘zgarishga uchragan (anya, alarnıñ).

Turkologlar qadimgi turkiy tildagi kelishiklar soni haqida turlicha fikr bildiradilar: Masalan, A.Kononov 11ta, V.I.Nasilov 7ta, V.V.Radlov 8 ta, I.A. Batmanov 6 ta deb izlanishlar olib borgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yo. Abdurasulov . " Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi " Tosh-2008 .89-91-betlar
- 2.S. Ashurboyev "O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi " Toshkent-2012
- 3.Dilnoza Tog`ayeva. "KELISHIK KATEGORIYASINING VARIANTLILIGI" maqola
4. R. Sayfullayeva." Hozirgi o‘zbek adabiy tili" o‘quv qo’llanma
5. Ma’ruza matni
6. www.arxiv.uz sayti
7. www.ziyo.net sayti